

THE MAIN PROBLEMS OF POPULATION EMPLOYMENT IN SERVICE NETWORKS OF KASHKADARYA REGION

Mukhiddin Shermamatovich Khidirov

Senior Lecturer,

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Service provision, service object, labor resource, problems, unemployment, population employment, informal labor, infrastructure, social service, communication, transport, medical service.

Received: 21.11.23

Accepted: 23.11.23

Published: 25.11.23

Abstract: This article describes the formation of labour resources of Kashkadarya region, regional characteristics of population employment, increasing population employment by increasing service facilities, opportunities and problems of development of service networks.

QASHQADARYO VILOYATI XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA AHOLI BANDLIGINING ASOSIY MUAMMOLARI

Muhiddin Shermamatovich Xidirov

katta o'qituvchi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Xizmat ko'rsatish, xizmat ko'rsatish obyekti, mehnat resursi, muammolar, ishsizlik, aholi bandligi, norasmiy mehnat, infratuzilma, ijtimoiy xizmat, aloqa, transport, tibbiy xizmat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining mehnat resurslarining shakllanishi, aholi bandligining hududiy xususiyatlari, xizmat ko'rsatish obyektlarini ko'paytirish orqali aholi bandligini oshirish, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining imkoniyatlari va rivojlantirishdagi muammolari yoritilgan.

ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В СЕТЯХ ОБСЛУЖИВАНИЯ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Мухиддин Шерматович Хидиров

Старший преподаватель,

*Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Оказание услуг, объект обслуживания, трудовой ресурс, проблемы, безработица, занятость населения, неформальный труд, инфраструктура, обслуживание, связь, медицинское обслуживание.


Аннотация: В данной статье рассмотрено формирование трудовых ресурсов Кашкадарьинской области, региональные особенности занятости населения, повышение занятости населения за счет увеличения объектов сферы обслуживания, возможности и проблемы развития сети обслуживания.

KIRISH

O‘zbekistonda demografik holatning keskinligi, aholi sonining yuqori sur’atlarda o‘sishi va har yili 500 mingdan ortiq yoshlarning mehnat bozoriga kirib kelishi aholining barqaror ish bilan bandligi masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mamlakatimizda 2022-yil 1-yanvar holati bo‘yicha mehnat resurslari 19,1 mln. kishi, iqtisodiy faol aholi 14,8 mln. kishi, jami ish bilan band aholi 13,2 mln. kishi, shundan iqtisodiyotning rasmiy sektorida 5,7 mln. kishi (43,3 %), iqtisodiyotning norasmiy sektorida 5,6 mln. kishi (42,8 %), ishga joylashtirishga muhtoj shaxslar 1,6 mln. kishi (10,5 %) va chet elda ishslash uchun ketganlar 2 mln. kishini tashkil qiladi [7].

ASOSIY QISM

Qashqadaryo viloyatida 2010-yilda mehnat resurslari soni 1 mln. 493 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022-yilga kelib 1 mln 808,7 ming kishiga yetgan. Ya’ni shu yillarda davomida 315,7 ming kishiga yoki 1,2 barobarga oshgan. Mehnat resurslarining bu tariqa oshishi viloyatda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, aholi bandligini ta’minlashni taqozo etadi (1-rasm).



Statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

1-rasm. Qashqadaryo viloyati mehnat resurslari dinamikasi (2010-2022yy)

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi passiv choralardan (ishsizlik nafaqalarini to‘lash) faol bandlik siyosatiga o‘tmoqda (ayniqsa, yoshlar, ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar) va

ishsizlarni kasbga, tadbirkorlikka o‘qitish, mikrokreditlar va subsidiyalar ajratish orqali ularning ish bilan bandligiga ko‘mak berishni keng yo‘lga qo‘ydi. Ilk bor mamlakatimizda norasmiy mehnat bilan bandlik va yashirin iqtisodiyot muammolari ochiq muhokama qilina boshlandi va davlatimiz tomonidan uning ko‘lamini kamaytirish bo‘yicha keng chora-tadbirlar qabul qilindi. Aholining norasmiy mehnat bilan bandligi hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham mavjud bo‘lib, u nafaqat salbiy balki ba’zi muhim ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni ham bajaradi.

Birinchidan, iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish topa olmagan inson resurslarini ish bilan daromad olishlarini ta’minlab, ishsizlikni kamaytiradi (nochor qolganlar uchun haqiqiy ijtimoiy himoya vositasi), qashshoqlikning oldini oladi hamda o‘z daromadlarini rasmiy sektorda sarflab, ichki talabni oshiradi va YaIMning o‘sishiga turtki bo‘ladi.

Ikkinchidan, norasmiylik ko‘p hollarda biznes boshlashning bir usuli sifatida rasmiy sektorga o‘tishga qadam hisoblanadi. Norasmiy mehnat bilan bandlik butun dunyoda keng tus olgan hodisa bo‘lib, uning ko‘lamini kamaytirish davlatning bu sohada tizimli majmuali siyosat olib borishini talab qiladi.

Xalqaro mehnat tashkilotining hisobotiga ko‘ra, dunyoda 10 ta ishchidan 6 ta (ish bilan bandlarning 61%) va 5 ta korxonadan 4 tasi yashirin iqtisodiyotda norasmiy faoliyat yuritadi. Norasmiy mehnat bilan bandlikning shakllanishini iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va madaniy omillarga ega bo‘lgan hamda pirovard maqsadi iqtisodiy foyda olishga qaratilgan va aksariyat hollarda majburiy ko‘rinishdagi iqtisodiy faoliyat hisoblanadi. Norasmiy mehnat bilan bandlik yashirin iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida uning darajasini kamaytirish to‘g‘ridan-to‘g‘ri yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish bilan uzviy bog‘liqlikni va davlatning samarali keng majmuali chora-tadbirlar orqali hal etish zaruratini ko‘rsatadi. [2].

Har yili mehnat bozoriga 500 mingdan ko‘proq yoshlarning kirib kelishi aholining ish bilan bandlik muammosini ustuvor masala qilib qo‘ymoqda. Mamlakatimizda yaratilayotgan jami ish o‘rinlarining 90 foizi xususiy sektorda ekanligini hisobga olsak, mamlakatda qulay biznes muhitini shakllantirish, davlat korxonalarini xususiylashtirishni jadallashtirish, xususiy mulk himoyasini ta’minalash va faqat tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkinligini xalqimiz ongiga singdirish muhim ahamiyatga egadir [3].


Jahonda eng serdaromad sohalardan biri turizm bo‘lib, bu tarmoqni rivojlanish uchun birinchi o‘rinda, ularni kutib olish va yashashlari uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratib berish eng dolzarb masalalardan biridir. Jumladan mehmonxonalarda ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati turizmnинг ertangi kunini belgilab beradi.

Hududning transport infratuzilmasining rivojlanish darajasini baholashda umumiyl foydalanishdagi temir yo‘l, qattiq qoplamlali avtomobil yo‘llari, ularning zichligi, yo‘lovchilar tashish salohiyati har 100 ming aholiga to‘g‘ri keladigan umumiyl foydalaniladigan avtobuslari

soni, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan transport xizmatlari hajmiga e’tibor qaratiladi. Bugungi kunda ko‘pgina turistik obyektlar, mehmonxonalarini bog‘lovchi yo‘l infratuzilmasi bilan bog‘lanmagan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, respublikamizda har 10 ming fuqaroga 2 ta avtobus to‘g‘ri keladi, lekin hududlarda ularning 30 % dan ortig‘i ishlamayapti. Xalqaro yo‘lovchi tashishning bor-yo‘g‘i 6 % (12 ta avtobus, mavjud talab – 200 ta avtobus) qonuniy faoliyat yuritayotgan yo‘lovchi tashuvchilar tomonidan amalga oshirilmoxda xolos. Qashqadaryo viloyatida ham turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xususan, transport yo‘llari sifati jihatidan ham turizm bozorining boshqa ishtirokchilaridan ancha orqada qolmoqda. Avvalo, bu mavjud infratuzilmaning eskirishi, uni modernizatsiya qilishni moliyalashtirish va yangi quvvatlarni yaratish muammolarini, turizm infratuzilmasini hududiy rivojlantirishning strategik boshqarish mexanizmining yetishmasligi, hududlarda rivojlanishidagi keskin farqlar va boshqalar turizm infratuzilmasining o‘ziga xos xususiyati bilan bog‘liq muammolardir [5].

Viloyatda xizmat ko‘rsatish tarmoqlari infratuzilmasini yaxshilash ularning faoliyatini ta’minalash hududlardagi turistik tashkilotlar, mehmonxona yoki shunga uxshash joylar, aholini mazmunli xordiq chiqarishlari uchun kutubxonalar, teatrler, muzeylar va boshqa xizmat ko‘rsatish obyektlari infratuzilmasini yaxshilash borasidagi islohatlarni tizimli tashkil etilmaganligi sababli hududda ko‘plab muammolar hozirgacha ko‘zga tashlanadi. Misol tariqasida viloyatda turli transport xizmatlarini yetarli darajada tashkillashtirilmaganligi, aholini viloyatdagi mavjud turizm obyektlari bo‘yicha axborot ma’lumotlari bilan ta’minlanganlik darajasining pastligi sababli xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining jadal rivojlantirishga salbiy ta’sir qilmoqda. Qashqadaryo viloyatida ishsizlar soni 2017-yilga 137 ming kishi bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda 124 ming kishiga pasaydi (2-rasm).



Statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2-rasm. Qashqadaryo viloyatidagi iqtisodiy faol aholi, band va ishsizlar soni.

Iqtisodiyotda band aholining ulushi viloyatning tumanlarida turlicha ko'rinishga ega. Masalan, 2022-yil ma'lumotiga ko'ra, iqtisodiyotda band aholining eng katta ulushi Chiroqchi (11 %), Qarshi shahri (9,6 %), Kitob (8,5 %) tumanlariga, eng past ko'rsatkichlari Muborak (1,8 %), Mirishkor (3,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi (1-jadval).

1-jadval

Qashqadaryo viloyati ma'muriy birliklarining mehnat resurslari ulushiga ko'ra guruhanishi (ming/kishi)

Nº	Mehnat resurslarining guruhanishi, ming kishi hisobida	Hududlar soni	Hududlar nomi
1.	120-150 dan yuqori	2	Qarshi sh., Chiroqchi
2.	100 dan 120 gacha	4	Qamashi, Kasbi, Koson, Yakkabog';
3.	80 dan 100 gacha	4	G'uzor, Qarshi, Nishon, Shahrisabz
4.	50 dan 80 gacha	4	Shahrisabz sh., Kitob, Muborak, Dehqonobod
5.	50 dan past	1	Mirishkor;

Statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.


Bugungi kunda hududlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida kichik tadbirkorlik subyektlari o'rni sezilarli darajada ortganligini ko'rib turibmiz. Misol uchun viloyatda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, sanoat, qurilish, savdo, tashish va saqlash, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, axborot va aloqa, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va boshqa turdag'i iqtisodiyot tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini olib borayotgan subyektlarning soni (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) 2022-yil hisobiga ko'ra 32584 tani tashkil etib, shundan faol ishlayotganlari soni 31152 ta, nofaoli 1432 ta, yangi tashkil etilganlari 9463 tani va tugatilganlari 2967 tani tashkil etdi [1].

Davlatimiz tomonidan faoliyati susayan yoki bankrot bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga moddiy yordam sifatida turli xildagi imtiyozlar berib kelmoqda. Buning natijasi ularoq hududlarning iqtisodiy ahvolini yaxshilash, qolaversa aholining bandligini taminlash, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining hududiy rivojlanish imkoniyatlarini oshirishdan iboratdir.

Viloyatda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olishni taqozo etadi. Mehnat resurslarininng iqtisodiyot tarmoqlarida bandligini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2022-yildagi ma'lumotlarga ko'ra, hududdagi jami iqtisodiyotda bandlarning 1211,2 ming kishi bo'lib, shundan 53,24% xizmat ko'rsatish tarmoqlarida band.


Qashqadaryo viloyati mehnat resurslari tumanlar kesimida tahlil qilib chiqildi, bunda mehnat resurslari soni bo'yicha eng katta ko'rsatgich, ya'ni 120 mingdan 150 minggacha mehnat resursiga Qarshi shahri va Chiroqchi tumanlari, 100-120 minggacha Qamashi, Kasbi, Koson,

Yakkabog‘ tumanlari, 80-100 minggacha G‘uzor, Qarshi, Nishon, Shahrисабз tumanlari, 50-80 minggacha Shahrисабз shahri, Kitob, Muborak, Dehqонобод tumanlari va 50 mingdan kam mehnat resursi Mirishkor tumaniga to‘g‘ri keldi (3-rasm).



3-rasm. Oashqadaryo viloyati mehnat resurslari xaritasи (muallif tomonidan tuzilgan).

Viloyatda xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2022-yil 58,9 % ni tashkil etgan bo‘lib, bu 2019-yildagiga nisbatan 3,1 % ga kamaygan. O‘z navbatida qurilish (2,1 % ga) hamda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (5,8 % ga) sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi ortgan (4-rasm).



Statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

4-rasm. Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi

Qashqadaryo viloyatida so‘ngi yillarda aholi sonining tez suratlar bilan o‘sishi, yangi aholi manzilgohlarining tashkil etilishi, aholini sifatli turmush kechirishlari uchun xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirish, aholini ish bilan bandligini taminlash borasida amaliy ishlar olib borilmoqda. Viloyatdagi ba’zi tumanlar maydonining kattaligi sababli, olis aholi mazilgohlarida yashovchi aholini tuman markazi bilan bog‘lovchi masofaning uzoqligi sababli (Dehqonobod, Chiroqchi, Qamashi tumanlarida) xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida muammolar mavjud. Viloyatning tabiiy sharoitidan kelib chiqib, tumanlarning joylashgan geografik o‘rni, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillariga bog‘liq holda xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini sifatli tashkil etishda muammolar kelib chiqmoqda.

Quyida viloyatning tog‘ va tog‘oldi tumanlari Dehqonobod, Qamashi, Yakkabog‘, Shahrисабз, Kitob va Chiroqchi tumanlarida joylashgan markazdan olisdagi aholi manzilgohlarida xizmat ko‘rsatish tarmoqlari va aholining bandligini tahlilini ko‘rib o‘tamiz.

Dehqonobod tumani – relyefi o‘rtacha balandlikdagi tog‘lar, Hisor tizmasining g‘arbiy tarmoqlari – Bobosurxon, Qorasirt va birmuncha past tog‘lar: Oqtosh, Sayfi, Kesik, Usmontov, Tepaqo‘rg‘on hamda tog‘oldi qiya tekisliklaridan iborat. Maydoni jihatdan viloyatdagi eng katta tuman hisoblanadi (4,0 ming km²), tuman aholisi hududi bo‘ylab juda notekis joylashgan, tog‘oldi va tog‘ oraliq vodiylarida aholining eng zich holatini ko‘rishimiz mumkin. Tumandagi Polvonsuv, Do‘konxona, Bo‘ztepа, Ulug‘dara kabi aholi manzilgohlariga borish uchun bir necha saatlik yo‘lni

bosib o‘tish talab qilinadi. Tuman markazidan olisda joylashgan aholi manzilgohlarida aholi uchun eng kerakli bo‘lgan xizmatlardan tibbiy xizmatning holatini yaxshi deb bo‘lmaydi. U yerda yashayotgan aholi tuman markaziga kelguniga qadar bir qancha qiyinchiliklarga uchraydi, u yerda aholiga xizmat ko‘rsatish eng past darajada rivojlangan. Relyefi va iqlimiylar xususiyatlari yilning qish faslida haqiqiy muammoga aylanadi. Aholisi, asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan band.

Qamashi tumani – tumanning bir qismi Qarshi cho‘liga, yana bir qismi Hisor tizmalariga tutashib ketgan. Bu yerda ham tuman markazidan olisdagi Kaltaqo‘l (74 km), Vori (78 km), Zarmas (70 km) kabi aholi manzilgohlari joylashgan. Bu manzilgohlarga borish uchun ko‘plab davon oshish kerak, yo‘l (transport) infratuzilmasi talabga javob bermaydi. Xizmat ko‘rsatish obyektlaridan mакtab, kichik qishloq vrachlik punktini hisobga olmaganda, bu yerda aholiga xizmat ko‘rsatish deyarli yo‘q desak noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Aholining asosiy qismi chorvachilik va dehqonchilikda band.

Yakkabog‘ tumani – viloyatning sharqiy qismida joylashgan. Tuman hududning sharqiy chekka qismlarida Hisor tizmasining balandligi 2500 m gacha bo‘lgan, janubi-g‘arbiy tarmoqlari Chaqchar, Beshnov, Xontaxta tizmalari bor. Bu tog‘lar g‘arbgaga tomon pasayib, Qashqadaryo tekisliklari bilan qo‘silib ketadi. Yakkabog‘ tumanida ham markazdan olisda qolgan aholi manzilgohlari mavjud, bularga: Nov, Tatar (44 km), Zomit kabi relyefi baland joylarda istiqomat qiladigan aholiga xizmat ko‘rsatadigan obyektlarga ehtiyoj borligini ko‘rshimiz mumkin.

Shahrisabz tumani – tuman hududi Qashqadaryo viloyatining shimoli-sharqiy qismida, Hisor tog‘larining etaklarida joylashgan. Sarchashma, Yakkabuloq, Ko‘l va G‘elon kabi aholi manzilgohlari tuman markazidan eng uzoqda joylashgan. Bu qishloqlar garchan tuman markazidan uzoqda joylashgan bo‘lsada, qishloqning mo‘jizakor tabiatini ko‘rish uchun hattoki xorijdan ham turistlar kelishi quvonarli hol albatta. Qishloqda 7 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi, G‘elon qishlog‘ida 3 ta maktab, masjid, uy mehmonxonalari, uy muzeylari bor. Transport infratuzilmasi mahalliy aholi tomonidan tog‘ yo‘liga mo‘ljallangan Neva va Uaz avtomobilari orqali shaharga borishadi, yo‘llar talab darajasiga javob bermaydi. Aholining katta qismi dehqonchilik va chorvachilikda band. Bu yerda ayollarning ish bilan bandligi juda past darajada, faqatgina uy-ro‘zg‘or ishilari bilan shug‘illanishadi.

Kitob tumani – tuman hududining katta qismini, ya’ni shimol va sharqiy chegaralar bo‘ylab cho‘zilgan baland Hisor va Zarafshon tog‘lari (4000 m) egallagan. Tuman hududida ko‘plab turizmni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lgan daryo vodiylari, sharsharalar, daralar va shunga o‘xhash go‘zal va so‘lim joylarga boydir. Biroq tumanga qo‘shti tumanlardan keluvchi aholiga ko‘rsatilayotgan xizmat yaxshi rivojlanmaganligi sababli mehmonlar bir kunning o‘zida kelib ketishadi. Tuman o‘zining turizm va rekreatsiya imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olmayotganligini ko‘rshimiz mumkin. Ayniqsa tuman markazidan olisdagi Denovbola,

Qavzaxona va Matmon kabi aholi manzilgohlaridan ham turizm va rekreatsiya maqsadlarda foydalansa bo‘ladi. Biroq bu aholi manzilgohlarida xizmat ko‘rsatish tarmoqlari yaxshi rivojlanmagan. Aholining katta qismi tog‘ dehqonchiligi va chorvachiligidagi band.

Chiroqchi tumani – tuman hududi janubi-g‘arbdan shimoli-sharqqa (Qoratepa tog‘i) balandlashib boradi. Zarafshon tizmasining davomi bo‘lmish Qoratepa tog‘ida balandlik 1200-1500 m yetadi. Bu yerda ham tog‘li hududda yashaydigan aholi manzilgohlari tuman markazidan 40-50 km uzoqda joylashgan. Bularga: Tarag‘ay, Langar va Quruqsoy qishloqlarini kiritish mumkin. Bu yerni tumanning turistik markazi desak adashmaymiz, mahalliy aholining katta qismi shu hududga madaniy xordiq chiqazish uchun kelishadi. Kichik uy mehmonxonalar, savdo shahobchalari aholiga xizmat qilmoqda. Lekin boshqa tumanlardagi kabi bu yerda ham xizmat ko‘rsatish tarmoqlari bilan bog‘liq muammolar mavjud. Mehmon uylari, transport, tibbiy xizmat va h.k. Aholining katta qismi xanuz dehqonchilikni va chorvachilikida band bo‘lib kelmoqda [4].

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqqan holda Qashqadaryo viloyati o‘ziga xos demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga ega, hududda aynan xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanishi, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari aholini ish bilan bandligini ta’minlashda yetakchi soha ekanligi hamda aynan mazkur tarmoq ish haqi bo‘yicha sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlaridan o‘zib ketganligini ilmiy tahlillar yordamida ochib berildi.


Qashqadaryo viloyati xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida aholi bandligining yuqori ko‘rsatkichlari (50,1 % dan yuqori) Qarshi sh., Shahrisabz sh., Kitob, Shahrisabz, G‘uzor, Muborak, Qamashi, Qarshi, Koson tumanlarida, o‘rtacha ko‘rsatkichlari (45,1-50 % gacha) Mirishkor, Chiroqchi, Nishon tumanlariga, nisbatan past ko‘rsatkichlari (45 % dan kam) Nishon, Kasbi va Dehqonobod tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Viloyat xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining hududiy xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida ba‘zi tumanlarda xizmat ko‘rsatish obyektlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli hududiy muammolar ko‘zga tashlandi. Tuman markazlaridan uzoqlashgan sari xizmatlarning turi, sifati kamayib boradi. Viloyatda aynan tuman markazlaridan olisda joylashgan aholi manzilgohlarida aholi uchun birinchi darajali xizmat ko‘rsatish obyektlarini, tibbiy, transport, ta’lim, savdo, maishiy, aloqa va boshqa xizmat turlarining infratuzilmasini yaxshilash orqali aholini sifatli xizmatlar bilan taminlash balki xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida aholining bandligini ham oshirish mumkin bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, viloyat iqtisodiyotini rivojlanishda xizmat ko‘rsatish sohalarini yetakchi o‘rnlarga ko‘tarish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, hududlarning tabiiy geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilma imkoniyatlaridan turli maqsadlarda samarali foydalanish o‘z navbatida aholining bandlik darajasini oshirishda, turmush sharoitlarini yuksaltirishda muhim

omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababdan, zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini ilmiy tadqiq qilish, viloyatning xizmat ko‘rsatish tarmoqlari salohiyatidan foydalanishning dolzarb masalalarini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga molikdir.



5-rasm. Qashqadaryo viloyati xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida aholi bandligi xaritasi (muallif tomonidan tuzilgan).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Baratov P., Xidirov M.Sh., Allayorov R.X. Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanish va samaradorligini oshirishning ayrim masalalari // O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 47-jild. – T., 2016, – B. 57-60.
2. Ostanov E., Ostanova M. Raqamli iqtisodiyot sharoitida norasmiy bandlikni rivojlantirish muammolari // “Markaziy Osiyo mintaqasida turizmni rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlar” mavzusida xalqaro miqyosdagi ilmiyamaliy anjuman ilmiy maqolalar va tezislar to‘plami. – Qarshi, 2022. – B. 329-334.
3. Umidilloyev A., Ostanova M. Raqamli iqtisodiyot sharoitida norasmiy bandlikni rivojlantirish muammolari // “Markaziy Osiyo mintaqasida turizmni rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlar” mavzusida xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman ilmiy maqolalar va tezislar to‘plami. – Qarshi, 2022. – B. 352-354.
4. Xidirov M.Sh. Qashqadaryo viloyatida mehmonxona, turizm xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq muammolar va mavjud imkoniyatlar // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. 2022/9-son. – T., 2022. – B. 284-288.
5. Jumayev X.X. Qashqadaryo viloyati turizm-rekreatsiya salohiyatini baholash va turizm infratuzilmasining hududiy tizimlarini takomillashtirish // g.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taq. et diss. avtoref. – T., 2022. – 74 b.
6. <http://www.ilo.org> - Xalqaro mehnat tashkilotining rasmiy sayti.
7. <http://www.stat.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Statistika bo‘yicha davlat qo‘mitasining rasmiy sayti.
8. <https://qashstat.uz>